

**Hamdamov Eldorbek Doniyorjon o‘g‘li**

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi tayanch doktoranti

**Qurbanov Shuhrat Bekmetovich**

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kafedrasi dotsenti

## **FARG‘ONA MINTAQASIDAGI MUQADDAS QADAMJOLARNI**

### **ZIYORAT QILISHNING MAVSUMIYЛИGI**

*Annotatsiya.* Maqolada Farg‘ona vodiysi hududlaridagi ziyoratgoh va qadamjolarni ziyorat qilishning mavsumiyligi ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, muqaddas joylarning rekreatsion va shifobaxsh vazifalari tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** ziyorat turizmi, shifobaxsh buloqlar, shifobaxsh qum, pik davri, fasllar, kasalliklar.

**Hamdamov Eldorbek Daniyorjon o‘g‘li**

National University of Uzbekistan,

Department of Economic and Social Geography foundation doctoral student

**Kurbanov Shuhrat Bekmetovich**

National University of Uzbekistan,

Department of Economic and Social Geography associate professor

## **SEASONALITY OF VISITING HOLY PLACES IN THE FERGANA**

### **REGION**

*Abstract.* The article characterizes the seasonality of visiting shrines and temples in the regions of the Fergana Valley. The recreational and medicinal functions of holy places are analyzed.

**Key words:** pilgrimage tourism, healing springs, medicinal sand, peak period, seasons, diseases.

Jahonda ziyorat turizmni rivojlantirish imkoniyatlari va muammolari, uning hududiy tashkil etilishiga bag‘ishlangan ijtimoiy geografik tadqiqotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bunda ziyorat turizmi tushunchasining mazmun-mohiyati, hududlarning ziyorat turistik resurslarini baholash, ziyoratchilarni jalb qilish uchun

kerak bo‘lgan infratuzilma komplekslarini loyihalashtirish, ziyorat turistik sayohatlariga bo‘lgan istiqbol talablarini o‘rganish va prognozlashtirish, ziyorat turizmining hududlar iqtisodiyotida tutgan o‘rnini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

So‘nggi yillarda respublikamizda diniy va ziyorat turizm imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo‘yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va ijobjiy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida turistlar oqimini shakllantirish va ular uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari dasturi”da “Ichki turizm yo‘nalishida faoliyat yurituvchi turoperatorlar bilan hamkorlikda respublikaning barcha hududlari qamrab olingan arzon narhlardagi ichki turizm mahsulot larini ishlab chiqish hamda ularni joylarda keng targ‘ib qilish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Jumladan, O‘zbekistonda hududlardagi diniy va ziyorat turizm ob’ektlarini inventarizatsiya qilish, mazkur ob’ektlarga turistlar oqimini jalb qilish choralarini ishlab chiqish, mahalliy, milliy va xalqaro ahamiyatdagi diniy turistik marshrutlarni loyihalash, ularning kompleks dasturlari va xaritalarini yaratish, joylarda diniy turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini oshirish yo‘llarini asoslashga qaratilgan ijtimoiy geografik tadqiqotlarni o‘tkazish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ham ko‘plab ziyoratgoh va qadamjolar – Imom al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziyy, Imom Moturudiyy, Abduholiq G‘ijduvoniyy, Bahouddin Naqshbandiy, Ahmad Farg‘oniy, Burhoniddin Marg‘iloniy, Imom at-Termiziylarning muqaddas maqbaralari va ular nomi bilan bog‘liq tabarruk qadamjolar bor, qolaversa buddizm, xristianlik, zardushtiylik bilan bog‘liq bo‘lgan diniy turistik ob’ektlar bor. Bularning aslida aksariyat qismi mahalliy ziyoraratchilarning qamrovi bilan gavjum. Mamlakatimizda aksariyat muqaddas qadamjolarga xos yana bir jihat shundaki, ularning hududi tarixan markazlarda, yonida buloqlar, ming yillik daraxtlar, uzoq tarixga ega masjidlar mavjud.

Farg’ona vodiysida Islom dini qadimdan insonlar orasida keng tarqalgani va donishmand va mutafakkirlar ko’plab yetishib chiqqanligi bois, muqaddas qadamjolar ham keng tarqalgan. Hozirgi kunda Farg’ona vodiysi viloyatlarida 200 dan ortiq ziyoratgoh va qadamjolar ro‘yxatga olingan [2;3]. Qadamjolarga odamlar turli maqsadlarda tashrif buyurishadi. Masalan, ruhiy taskin topish, farzand talabida bo’lganlar, turli kasalliklarga davo istab tashrif buyurish va boshqalar. Insonlardagi kasalliklarning mavsumiy xususiyatga ega ekanligi, iqlimning mavsumiyligi tufayli ziyoratgoh va qadamjolarga tashrif buyurish ham mavsumiy xususiyatga ega. Muqaddas ziyoratgoh va qadamjolarning rekreatsion ahamiyati katta va keng qamrovli hisoblanadi. Bunda avvalo, insonlar ziyoratgohlarga tashrif buyurishganda o’zlarini qalban hotirjam his qiladilar. Bu esa insonlarning jismidagi ko’plab asab bilan bog’liq kasalliklardan tuzalishiga olib keladi. Bundan tashqari ushbu ziyoratgohlardagi shifobaxsh qum, hovuz va buloqlar suvlari ham insonlardagi turli-xil kasalliklarni davolash xususiyatiga ega bo’lib, quyida ularning ba’zilariga to’xtalib o’tamiz.

Ziyoratgohlarni rekreatsion jihatdan quyidagicha guruhashimiz mumkin:

1. Dam olish va ziyorat qilish maqsadida tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar;
2. Shifobaxsh qumga ega bo’lgan ziyoratgohlar;
3. Shifobaxsh buloqlar va xovuzlarga ega bo’lgan ziyoratgohlar;
4. Turli xil kasalliklarga davo bo’luvchi ziyoratgohlar;
5. Kasb va dehqonchiligida baraka tilab tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar.

Ziyoratgoh va qadamjolarning yuqoridagi tipiga qarab ularning mavsumiylik xususiyatlari bir biridan farq qiladi.

**1. Dam olish va ziyorat qilish maqsadida tashrif buyuriluvchi ziyoratgohlar:** Bunday tipdagi ziyoratgohlar Farg’ona vodiysi viloyatlarida salmoqli darajada bo’lib, Bandi ota ziyoratgohi, Xo’jataqsim ota ziyoratgohi, Teshiktosh ota ziyoratgohi, Xo’ja Ahmad Valiy ziyoratgohi, Sulton Uvays Qaraniy ziyoratgohi, Pochcha ota ziyoratgohi, Qovunchi ota ziyoratgohi, Xazrat Ali maqbarasi, Yordon ota ziyoratgohi, Arsif ota ziyoratgohi kabi ziyoratgohlarni misol qilib keltirishimiz mumkin bunday tipdagi ziyoratgohlarda mavsumiylik yoz

faslida pik davriga ko'tariladi, odamlar dam olish va qadimiy ziyyaratgohlarni ziyyarat qilish uchun tashrif buyuradilar, bu tipdag'i ziyyaratgohlarning mavsumiy bo'lishini havo harorati belgilab beradi.

**2. Shifobaxsh qumlarga ega bo'lgan ziyyaratgohlar:** Bu tipdag'i ziyyaratgohlarga, O'n bir Ahmad ziyyaratgohi, Bastom buva ziyyaratgohi, Oqmozor ziyyaratgohi kabi ziyyaratgohlar kiradi. Mahalliy aholi shifobaxsh qumlardan bod, bepushtlik, tanaga oq tushishi, yosh bolaolarda siygaklik, kattalarda buyrak va qovuq shamollahslari, revmatizm kabi kasalliklarga davo topish maqsadida tashrif buyurishadi. davolanuvchilar asosan yilning avgust-sentyabr oylarida tashrif buyurishadi.

**3. Shifobaxsh xovuz va buloqlarga ega bo'lgan ziyyaratgohlar:** bu tipdag'i ziyyaratgohlarda ko'plab shifobaxsh buloqlar mavjud bo'lib, rivoyatlarga ko'ra, shu yerlarga dafn etilgan sahoba va avliyolarning qabrlari yonidan shu kabi buloqlar otilib chiqqan ekan. Bunday ziyyaratgohlarga; Xo'jamposhsho ziyyaratgohi, Tuzliq momo ziyyaratgohi, Sadkak ota ziyyaratgohi, Xovuzkon ota ziyyaratgohi, Buvi ona kabi ziyyaratgohlar misol bo'ladi. Ziyyaratgohlardagi buloqlarning xususiyatlari ham turli xil bo'lib, ba'zi buloqlarga tosh va tanga tashlab niyyat qilinadi (Buvi ona va Xojamposhsho ziyyaratgohidagi buloqlar). Boshqa buloqlar atrofida dam olish maskanlari tashkil etilgan bo'lib buloq suvi ist'emol qilinmaydi (Sadkak ota ziyyaratgohi), Xovuzkon ota ziyyaratgohidagi buloq va Tuzliqmomo ziyyaratgohidagi hovuz esa inson organizmidagi turli xil kasalliklarga davo bo'ladi. Yuqorida aytib o'tilgan ziyyaratgohlar hovuz va buloqlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun mavsumiylik asosan yoz faslida pik davrga ko'tariladi.

**4. Turli xil kasalliklarga davo bo'luvchi ziyyaratgohlar:** Fargona vodiysi ziyyaratgohlari o'zining turli xil shifobaxsh xususiyatlari bilan ko'plab odamlar dardiga davo bo'lib kelgan. Jumladan, Sariq kasaligiga chalingan bemorlar Sariqota mozoriga, ko'k yo'tal kasaligiga chalinganlar Xo'jayi Kabutpush, Ko'k tilli ota ziyyaratgohlariga, badaniga va sochiga oq tushgan va turli yaralar toshgan odamlar Bobo Qambar, Kelachi buva ziyyaratgohlariga, tashrif buyuradilar. Barchaga ma'lumki ko'k yo'tal, sariq kasalligi asosan yilning sovuq kuz, qish

fasllarida avj oladi, shu sababli, Sariqota mozori, Xo'jayi Kabutpush, Ko'k tilli ota ziyyaratgohlariga tashrif buyurishning pik davri aynan shu fasllarda sodir bo'ladi.

**5. Kasb va dehqonchiligidagi baraka tilab tashrif buyuriluvchi ziyyaratgohlar:** Mazkur ziyyaratgohlarga asosan insonlar o'z kasbi va ro'zg'orlariga baraka tilab tashrif buyuradilar. Bunday ziyyaratgohlarga Galdir bobo (ziyyaratgohda har yili bahor faslida buvaydalik ustalar kasbiy marosim amallarini ado etadilar), Ummat buva (dehqonlar hirmon ko'tarishdan avval bu yerni ziyyarat qiladilar) ziyyaratgohlari kiradi. Ziyyaratgohlarga tashrif buyurish, odamlarning kasbi va dehqonchiligiga baraka va mo'l – ko'l hosil beradi deb ishonadilar. Ummatbuva ziyyaratgohiga dehqonlar asosan kuz faslida hirmon ko'tarishdan oldin tashrif buyuradilar, Galdir bobo ziyyaratgohi esa har yili bahor faslida mahalliy ustalar bilan gavjum bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyyarat turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni.
2. Eraliyev B., Ostonaqulov I., Abdulahatov N. "O'zbekiston ziyyaratgohlari va qadamjolari. Farg'on va viloyati" T.: "Turon Zamin Ziyo", 2014.
3. B. Eraliyev, I. Ostonaqulov, N. Abdulahatov. "O'zbekiston ziyyaratgohlari va qadamjolari. Andijon va Namangan viloyatlari" T.: "Turon Zamin Ziyo", 2014.